ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/№ 1,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.01.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova,(PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.01.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, (PhD), доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, (PhD), доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, (PhD), доцент (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.01.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

AMINOVA DILNOZA
Brending va imij tushunchalarining nazariy tavsifi 7

QODIROV UMARJON AKRAMJON O‘G‘LI
Shonazar Shoabdurahmonov Qo‘qon shevasi xususiyatlari haqida 11

NAZAROVA ZIYODA KATTAYEVNA
Frazeologik birliklarni idiomalardan farqlashning muhim ahamiyati 14

QIYOMIDINOVA NILUFAR QAXRAMON QIZI
Ijtimoiy tarmoqlarning lingvistik dinamikasi:
evolyutsiya, o‘ziga xoslik va raqamli davr ta’siri 17

BO‘RONOV NAZIM MUSTAFAQULOVICH
Feyk yangiliklarga qarshi kurashishda milliy va xalqaro tajriba 22

MUSURMONQULOV ADHAM ABDURASHID O‘G‘LI
Tilshunoslikda uyadosh so‘zlar lug‘atini
yaratishning maydon nazariyasidagi talqini 27

SOBIROVA FERUZA ISLOMJON QIZI
Saylovoldi dasturlarda nutqiy manipulyatsiya.....30

XOLMATOVA GO‘ZAL BAXODIROVNA
Internet-media ergonimlarining struktur-semantik tahlili
(o‘zbek va ingliz tillarida) 35

ASHUROV BOBIR SHAKIROVICH
Sud-ekspertiza lingvistikasi: nazariy asos va metodologik talqin 38

ROZUMBETOVA XILOLA UMAR QIZI
To‘rtko‘l tumani oykonimlarining leksik-semantik tahlili.....42

TOJIBOYEV ILXOMJON USMONOVICH
Lingvomadaniyatshunoslik antropotsentrik paradigmaning
asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida 47

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

JEPBAROWA SAÝAT KURBANMIRATOWNA
Halk dessanlarynyň beýik şahyr Magtymguly pyragy
döredijiligine çeperçilik täsiri 49

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA
Badiiy asarlardagi maqollarning evolyutsiyasi
(“Zarbulmasal” asari misolida) 52

АБДУЛЛАЕВ МАХМУД АХМАТОВИЧ
Таджикское литературоведение о вкладе Садриддина Айни
в изучении узбекско-таджикских литературных связей 55

DUSIMBETOVA NARGIZA BAXTIYAROVNA
Bo‘lajak jurnalistlarning transmedia ko‘nikmalarini shakllantirish
va o‘rgatish jarayonining metodikasi 58

TA’LIM

МАМЕДОВА НАРГИЗА ЗИРАДДИНОВНА
Современные методы преподавания русского языка 58

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK ANTROPOTSENTRIK PARADIGMANING ASOSIY YO'NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA

Tojiboyev Ilxomjon Usmonovich,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Namangan davlat universiteti

Ma'lumki, XIX asrning 70-yillaridan boshlab tillarning yashash sharoiti qandayligi masalasi tadqiqotchilar e'tiborini ko'proq o'ziga torta boshladi va buning natijasida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik bag'ridan yangi yo'nalish o'sib chiqdi. Ushbu tilshunoslik asosiy e'tiborni tarixiy yozma yodgorliklar tilini o'rganishga va bobotil holatini tiklashga qaratdi. Ular bevosita nutqiy jarayonni o'rganishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa ham, lekin tilni muayyan elementlarning o'zaro munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligini, uning ko'p pog'onali ichki tuzilishini, belgili tabiatini yoritib berishga ojizlik qildi va uning bag'ridan yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etishga asosiy e'tiborni qaratgan sistem-struktur tilshunoslik maydonga keldi.

Tilni munosabatlar sistemasi sifatida o'rganish natijasida sistem-struktur tilshunoslik umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa kabi dialektik kategoriyalar asosida til va nutqni farqladi. Struktur tilshunoslik tilning ichki tuzilishini modellashtirgan holda o'rganishga harakat qildi. Lekin nutqiy faoliyatda so'zlovchining rolini, lisoniy birliklarning mazmuniy tomonini o'rganish e'tibordan chetda qoldi. Bu esa tilshunoslik oldiga yana yangi vazifalar qo'ydi.

XXI asr bo'sag'asida an'anaviy va struktur tilshunoslik bag'ridan antropotsentrik lingvistika o'sib chiqdi. Mazkur tilshunoslikda inson markaziy o'ringa chiqdi. Tilshunos olim O.Bozorovning fikriga ko'ra, jahon tilshunosligining ichki lingvistika yo'nalishida sistem tilshunoslik bosqichiga qadar faoliyat ko'rsatgan tilshunoslik an'anaviy tilshunoslik sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning asosiy usuli analiz bo'lgan. Tadqiq usuli sintez bo'lgan sistem tilshunoslik tilni sistema, sistemalilik nuqtayi nazaridan o'rganadi. Davrlar osha galma-gal o'zgaruvchan qismlar va butunlarni o'rganish usullari bo'lmish analiz va sintezdan birining nisbiy yetakchiligi asosida yetakchi usuli analiz bo'lgan an'anaviy (analitik) hamda yetakchi usuli sintez bo'lgan sistem-struktur (sintetik) tilshunoslik turlari shakllangan.

Bugungi kunda antropotsentrik paradigmaning kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, gender lingvistika kabi yangi yo'nalishlari vujudga keldi va mazkur yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Antropotsentrik paradigma tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o'rganuvchi, boshqa sistemalar inson, jamiyat, madaniyat kabilar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo'naltirilgan g'oyalar yig'indisidir.

Professor N.Mahmudov ta'kidlaganidek, "antroposentrizm" tilshunoslar tomonidan faqat til tadqiqigagina nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antroposentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir, bunda inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Tilshunoslikda e'tirof etilganidek, antropotsentrik paradigma qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigmalardan keyingi uchinchi paradigma hisoblanadi.

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari oralig'ida yuzaga kelgan bo'lib, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganadi. Mazkur sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari sanaladi. Ramz, mifologema, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar eng asosiy lingvomadaniy birliklar sanaladi. Olamning lisoniy manzarasi, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferasi, milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi lisoniy birliklar kabilarni aniqlash lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifasi hisoblanadi. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi etnolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik kabi sohalarda ham ma'lum darajada tadqiq qilinadi. Shuning uchun ham ushbu sohalar lingvomadaniyatshunoslikga yaqin sohalar hisoblanadi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda lingvomadaniyat-

shunoslikga oid ishlarda olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy konseptlar, lisoniy ong, frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tadqiqiga katta e'tibor qaratilayotganligini kuzatish mumkin. Lingvomadaniy xususiyatlar har bir tilga xos bo'lib, ular muayyan jamiyatning turmush tarzi, taraqqiyoti va rivojlanishidagi yo'lini aks ettiradi. Tillarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ko'pgina olimlar A.Vejbitskaya, V.Vorobev, S.Vorkachev, N.Djusupov, V.Karasik, V.Krasnix, V.Maslova, I.Olshanskiy, E.Oparina, D.Ashurova, S.Akbarova kabilar tadqiqot olib borishgan. Bu tadqiqotlarda turli xalqlarning tillariga oid bo'lgan konseptlar qiyosiy o'rganilgan.

Shubhasiz, so'z semantikasining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashda qiyosiy-tipologik usul eng samarali usul hisoblanadi. Qiyosiy tipologiya "genetik jihatdan qardosh va qardosh bo'lmagan turli tillarning sistemalarini qiyoslash, ulardagi umumiy (universal) va o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash, miqdor jihatdan cheklangan muayyan tillar doirasida tillararo muvofiqliklarni aniqlash va bunda ularning tipologik yoki sistem xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Lingvomadaniyatshunoslik dunyoni bilishning kompleks o'rganish sohasi bo'lib, unda til va madaniyat aloqadorligi, ularning o'zaro ta'siri o'rganiladi. Hozirgi davrda lingvomadaniy tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj va zaruriyatlar quyidagilar bilan izohlanadi:

Birinchidan**,** umumjahon muammolarining tez sur'atlarda globallashuvi. Bunda turli xalqlarning urf-odatlari va muomala usullari xususiylik va umumiylik (universallik) kategoriyalari nuqtayi nazaridan o'rganilmoqda. Ayrim muammolarning hal etilishida madaniyatlararo tushunmovchilik qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shuning uchun ham har bir xalq uchun xos bo'lgan madaniy qadriyatlar, ularning shakllari haqida aniq bilimlar, tasavvurlarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon kommunikativ faoliyatga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, gumanitar fanlarning taraqqiyoti. Hozirgi kunning tilshunosi bir necha sohalarga oid bilimlarning o'zaro kesishgan nuqtalarini bilishi zarur. Masalan, psixologiya, sotsiologiya, etnografiya, madaniyatshunoslik kabi fanlarning tilshunoslikka aloqadorligi masalalari bilan qiziqish maqsadga muvofiqdir. Hozirga qadar til haqidagi fanda, asosan, til hodisalarining o'zigagina katta e'tibor berilgan. Biroq tilni falsafiy aspektda anglash ham hozirgi kunning talabi hisoblanadi.

Uchinchidan, lingvomadaniyatshunoslik lingvistik bilimlarning amaliy tomoni bilan bog'liqligi. Bunda til vositalarining jamoa tajribasiga asoslangan tomonlari o'rganiladi. Bular leksik va frazeologik birliklarning semantik boyliklari, ularning ma'no nozikligi qirralarini aniqlashga imkon beradi, chet tilini o'rganishning maqsad va vazifalari mohiyatini tushunishga yordam beradi, siyosiy ta'sir va reklama amaliyotida bevosita zarur bo'ladi, ommaviy axborot va kommunikativ vositalarga kirib boradi.

Lingvomadaniyatshunoslik, ayniqsa, XX asrning oxirgi choragida dolzarblik kasb etdi. Unda lingvistik hodisalar antropologik paradigmaning hosilasi sifatida o'rganila boshladi. Bu sohaning asoschisi V.Gumboldt (XIX asr) bo'lib, u o'z tadqiqotlarida quyidagilarni bayon etgan:

- tilning xarakteri xalqning xarakteri bilan o'zaro aloqador;
- turli tillar dunyoni turlicha tushunish va his etish vositasi hisoblanadi;
- har bir tilga xos bo'lgan xususiyat millatning mentalitetiga ta'sir qiladi;
- tilni sinchiklab o'rganish tarix va falsafa fanlari bilan aloqadorlikda olib borilishi kerak;
- insonning ichki dunyosi bilan aloqador hodisalar hisobga olinishi lozim.

Bunday yondashuvning mohiyati shundan iboratki, olim turli til shakllarida tafakkur usullaridagi farqni va voqelikni tushunishdagi o'ziga xoslikni ko'rgan. U shunday xulosaga keladi: *tilda madaniyatning o'ziga xos tomonlari namoyon bo'ladi.* Shunday qilib, til va madaniyatning o'zaro faol ta'sirchanligi g'oyasi asosida tilshunoslikning yangi yo'nalishi – lingvomadaniyatshunoslik paydo bo'ldi.

Lingvomadaniyatshunoslik olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi. Masalan, E.O.Oparinaning fikricha, lingvomadaniyatshunoslik milliy tilda ma'lum xalqqa xos bo'lgan moddiy va ma'naviy madaniyatning namoyon bo'lishini o'rganishi kerak. V.A.Maslovaning e'tirof etishicha, bu fan tilshunoslik va madaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida paydo bo'lib, turli xalqlar madaniyatining tilda aks etishi va mustahkamlanish masalalarini tadqiq etadi. U "Lingvomadaniyatshunoslik" nomli monografiyasida mazkur fanning asosiy yo'nalishlarini quyidagicha belgilaydi:

- ayrim ijtimoiy guruh etnosiga xos bo'lgan muayyan lingvomadaniy holatlar;
- diaxronik lingvomadaniyatshunoslik ma'lum davrda muayyan xalqqa xos bo'lgan lingvomadaniy o'zgarishlar;
- turli, o'zaro aloqador xalqlarning lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish;
- lingvomadaniy leksikografiya, ya'ni har bir mamlakat uchun xos bo'lgan lug'atlar tuzish.

V.N.Teliya maktabi. Bu maktab Rossiya va chet ellarda frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili bilan shug'ullanuvchi "Moskva maktabi" nomi bilan mashhur. V.N.Teliya va uning shogirdlari tilning mohiyatini jonli til egasi nuqtayi nazaridan tadqiq etadilar. Natijada til subyekti va madaniyati bevosita aloqa-

dorlikda o‘rganiladi. Bu maktab vakillarining konsepsiyasi A.Vejbitskaya qarashlariga (mental tilshunoslik) yaqin turadi.

Til va madaniyat o‘rtasida umumiy tomonlar ham mavjudligini unutmaslik lozim. V.N.Teliya bunday umumiylikni quyidagilarda ko‘radi:

- madaniyat, xuddi til kabi, inson dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shaklidir;
- til va madaniyat o‘zaro munosabatda, bir-birining ta’sirida bo‘ladi;
- til va madaniyatning subyekti individ yoki ijtimoiy guruh, shaxs yoki jamiyat hisoblanadi;
- me’yoriylik (norma) til va madaniyat uchun umumiy xususiyatdir;
- tarixiylik til va madaniyatning muhim belgisidir;
- til va madaniyatga dinamika – statika ziddiyati bir xilda xosdir.

V.Vorobyov, V.Shaklenay va boshqalar tomonidan Rossiya universitetida yaratilgan lingvomadaniyatshunoslik maktabi. Bu maktab vakillari E.M. Vereshchagin va V.G.Kostomarovlarning konsepsiyalarini rivojlantirganlar.

V.A.Maslovaning ta’kidlashicha, mazkur fanning tadqiqot obyekti til birliklaridir. Til birliklari muloqotda metaforik ma’nolar va ramziy xususiyatlar kasb etadi. Natijada inson ongida arxetipik va prototipik xususiyatlar uyg‘unlashadi. Arxetipik va prototipik belgilar afsonalarda, urf-odatlarda, marosimlarda, folklor va diniy diskurslarda, frazeologizm va metaforalar, maqol va matallardagi ramzlarda namoyon bo‘ladi.

Lingvomadaniyatshunoslik haqida so‘z yuritganda shuni alohida e’tiborga olish lozimki, u o‘rganadigan til birliklari til va madaniyat elementlarining sintezi hisoblanadi. Bunday til birliklari ilmiy adabiyotlarda lingvokulturemalar (“lingvokulturema” atamasi V. Vorobev tomonidan kiritilgan) deb ham ataladi. Lingvokulturema sohalararo kompleks birlik bo‘lib, lisoniy va ekstralingvistik elementlarning dialektik birligini o‘zida namoyon etadi.

Shunday qilib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri, bog‘liqligini o‘rganish asosida tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi -lingvomadaniyatshunoslik paydo bo‘ldi. Voqelikni idrok etish va uni bilishning milliy-madaniy xususiyatlari muammosi aslida tadqiqotchilarni uzoq yillardan beri qiziqtirib kelmoqda. Ushbu muammo haqida bildirilgan fikrlar har xil, ba’zan esa ziddiyatlidir. Ularning ayrimlarida hatto turli xalqlarning borliqni idrok etishi bir-biriga batamom mos kelmasligini ta’kidlashga harakat qilinadi. Barcha xalqlar yagona voqelikni turlicha tasavvur qilishadi. Inson faoliyati ma’lum milliy madaniyat, muhit doirasida kechadi. Shu sababli har qanday turdagi bilish jarayoniga oid strukturalar, tuzilmalarda milliy kalorit mavjud bo‘lishi tabiiydir.

Har bir til dunyoni o‘zicha tasavvur etadi. Boshqacha aytganda, har bir til o‘zining konseptualizatsiya usuliga ega. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, har bir tilda dunyoni ko‘rish va tasavvur etishning o‘ziga xos tarzi mavjud. Til egasi o‘zi ifodalayotgan jumla mazmunini shu xalqqa xos bo‘lgan dunyoni ko‘rish tarziga muvofiqlashtiradi. Inson til tufayligina dunyoni va o‘zini tushunishga qodir. Bunda ijtimoiy-tarixiy tajriba umuminsoniy ham milliy omil sifatida ishtirok etadi. Milliy omil tilning barcha sathlarida kuzatiladi. Tilning o‘ziga xosligi til egasi ongida til vositalari orqali dunyoni ko‘rish va uni ifodalash imkonini beradi. Bu hodisalarning barchasi so‘zlarning semantik strukturasida ham namoyon bo‘ladi. Til vositalari orqali dunyoni ko‘rish insonning dunyoga bo‘lgan munosabatini (tabiatga, hayvonlarga, o‘z-o‘zlariga dunyoning muayyan unsuri sifatida qarash) shakllantiradi.

Til vositalari orqali dunyoni ko‘rishga bo‘lgan qiziqish V.Gumboldt ishlaridayoq o‘z ifodasini topgan. U shunday yozadi: “Turli tillarning yagona bir predmetni turlicha nomlashi ushbu predmetni turlicha ko‘rish, idrok etishdir”.

Fanda Sepir – Uorf nomi bilan ma’lum bo‘lgan “lisoniy nisbiylik” farazini 1930-yillarda B.Uorf o‘z ustozi E.Sepir g‘oyalariga tayangan holda shakllantirdi. Bu faraz bevosita Amerika antropologiya maktabining tadqiqotlari bilan bog‘liq.

Bir tomondan madaniyat formalari, urf-odatlar, etnik va diniy tasavvurlar va boshqa tomondan til strukturasi Amerika Hindularida o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan hamda boshqa tillardan keskin farq qilgan. Ushbu holat ularning tasavvurida til formasi, madaniyat va tafakkur o‘rtasida bog‘liqlik, o‘ziga xoslik borligidan darak beradi. B.Uorf olg‘a surgan g‘oyalarning mazmunini qisqa qilib quyidagicha izohlash mumkin: turli tillarda so‘zlashuvchi va har xil madaniyatga ega bo‘lgan shaxslar voqelikni bir xilda idrok etishmaydi. Biz voqelikni imkoniyatlarimiz doirasida qismlarga ajratamiz.

Olamdagi hodisalar, kategoriyalar, turlarni ularning moddiy borliqda obyektiv tarzda mavjudligi holatiga ko‘ra ajratmaymiz, aksincha, olam bizning ongimizda misli charxpalak kabi aylanib turgan subyektiv taassurotlar asosida tartib topadi. Bu tartibni ongimizda saqlanayotgan til tizimi ta’minlaydi. Biz bu olamni u yoki bu yo‘sinda qismlarga ajratishimiz, tushunchalar vositasida ifodalashimiz va ma’nolarga taqsimlashimizning sababi biz ham bunday tizimlashtirish bilan kelishuvchi, unga bo‘ysunuvchi ishtirokchilar ekanligimizdadir. Bu kelishuv ma’lum bir tilda so‘zlashuvchi jamoa uchun majburiy va uning tilimiz sistemasida o‘ziga xos o‘rni mavjud.

B.Uorf tomonidan ilgari surilgan qarash fan uchun o‘ta muhim bo‘lib, undan shunday xulosaga kelish mumkinki, hech kim moddiy borliqni mutlaq bilishga qodir emas. Shunday qilib, nisbiylik nazariyasining

mazmuni quyidagicha: bir xil fizik hodisalardan tarkib topgan olamning bir xildagi tasviriga faqatgina til tizimlarining bir xil yoki hech bo‘lmaganda o‘xshashligidagina erishish mumkin.

Yuqorida aytilgandek, ma’lum bir til ushbu til sohiblarining tafakkur faoliyati turini belgilab beradi va atrofdagi voqelikni bilish, idrok etish tarzi fikr yuritilayotgan til tizimi bilan bog‘liq. Bunday qarashda bilish jarayonidagi tilning roli xaddan ziyod ortirib yuboriladi. Haqiqatan, til tizimini bilish faoliyatidan ustun qo‘yish, uni barcha turdagi mental harakatlarning belgilovchisi, (determinanti) degan fikrni olg‘a surish g‘oyasining keskin tanqidga duch kelishi muqarrar edi va shunday bo‘ldi ham. Sh.Safarovning ta’kidlashicha, millatlar va elatlarning tafakkur faoliyatida uchraydigan nomutanosiblik holatlarini inkor qilib bo‘lmaydi. Buning isbotini esa til tizimi xususiyatidan izlagandan ko‘ra moddiy borliqdagi narsa va hodisalarning tabiiy mavjudlik holatlaridan hamda turli madaniy muhit vakillarining his etish va idrok qilish qobiliyatlarining har xilligi, shuningdek, ularning faoliyat doiralariga oid farqlardan izlagan ma’qulroq. Boshqacha aytganda, dunyoni bilishda til emas, balki moddiy borliq asosiy bilish manbai hisoblanadi.

Mazkur mulohazaga qo‘shilish mumkin, zotan, dunyoni bilish jarayoni til bilan bog‘liq bo‘lsa ham, bunda til birlamchi hodisa hisoblanmaydi. Boshqacha aytganda, til moddiy borliq bilan inson omili o‘rtasida vosita sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bu esa moddiy borliqning ayni paytdagi maqomi ustuvor ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Qiyosiy-tipologik tahlil natijasida har xil madaniyatlarga xos lisoniy lakunalar mavjud ekanligi aniqlandi. Masalan, inglizlar uchun *qovun* birgina so‘z – *melon* deb atalsa, ruslarda faqat *dinya,* o‘zbeklarda qovunni turlari juda ko‘p (bosvoldi, bo‘rikalla, obinovvot, shakarpalak, qoraqand, shirinpo‘choq, kampirchopon) kabi turlari mavjud bo‘lganligi uchun shunday leksemalar ham tilimizda mavjud. Ingliz va ruslar uchun faqat bitta so‘z ishlatiladi. Yoki o‘zbek tilidagi uzumning turli navlari (husayni, qora to‘s, qora charos, chilgi, mers) kabi o‘ndan ortiq turi mavjud bo‘lsa, ingliz va rus xalqida faqat bittadan leksema (vinograd - grapes) mavjud.

Dunyoni ko‘rishni olam haqidagi bilimga ega bo‘lish deb ham qarash mumkin. Uning asosida bilish jarayonidagi individuallik va ijtimoiylik yotadi. Til tizimi bilish jarayoni talablarini bajaradi. Dunyoning konseptual manzaralari turli ijtimoiy guruhlar, turli yoshdagi guruhlarda turlicha kyechishi holati ham kuzatiladi. Bundan tashqari, kishilar har xil tillarda so‘zlashishlariga qaramasdan, dunyoni ko‘rishning bir-biriga yaqin konseptlariga ega bo‘lishlari ham mumkin. Ikkinchi tomondan, bir tilda so‘zlashuvchi odamlarda ham konseptlar turli darajalarda bo‘lishi mumkin. Xullas, dunyoni ko‘rishning konsepti umuminsoniy, milliy va individual xususiyatlarning aloqadorligida namoyon bo‘ladi.

Rezyume. Maqolada XXI asr boshlarida kognitiv tilshunoslikda antropotsentrik tilshunoslikdan antropotsentrik tilshunoslikning paydo bo‘lishi va bu tilshunoslikda insonning markaziy o‘rni haqida dunyoning buyuk tilshunoslarining qarashlari keltirilgan. Antropotsentrik paradigma tilni quruq tuzilma sifatida emas, balki jonli muloqot va muloqotga asoslangan ochiq tizim sifatida o‘rganuvchi, boshqa tizimlarni inson, jamiyat, madaniyat va hokazolar bilan uzviy bog‘liqligida tahlil qiluvchi, ularning qarashlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan g‘oyalar majmuasidir.

Resume. The article presents the views of the world’s great linguists on the emergence of anthropocentric linguistics from traditional and structural linguistics in cognitive linguistics at the turn of the 21st century and the central role of man in this linguistics. The anthropocentric paradigm is a set of ideas that studies language not as a dry structure, but as an open system based on live dialogue and communication, analyzes other systems in their inextricable connection with man, society, culture, etc., and is devoted to the analysis of their views.

Резюме. Данная статья посвящена, что антропоцентрическая лингвистика возникла из традиционной и структурной лингвистики в когнитивной лингвистике на пороге XXI века и что в этой лингвистике центральное место занимает человек. Антропоцентрическая парадигма не рассматривает язык как сухую структуру, а как открытое общение, основанное на живом диалоге и общении, изучающее как систему, анализирующее другие системы в их целостном отношении к человеку, социуму, культуре и т. д., ориентированное на анализ человека внутри языка или языка внутри человека, а также представлены мнения великих лингвистов мира о том, что это сборник идей, и проанализированы их мнения.